

**THE USE OF INTERACTIVE METHODS IN THE TEACHING OF THE  
"ASIAN COUNTRIES" DEPARTMENT IN THE CONTEXT OF THE  
IMPLEMENTATION****Ibragimov Khurshid Khairullaevich**

Navoi State Pedagogical Institute

"Fundamentals of geography and economic knowledge"

chair teacher

**Annotation:** in improving the methodology of teaching the "Asian countries" Department in the context of implementation, the rapid, active, appropriate use of pre-established goals between educators and students creates the opportunity to further strengthen cooperation, activity, as well as interaction between students in each subject of educational processes.

**Keyword:** science, systemality, fundamentalism, consistency, exhibitionism, continuity of education and upbringing, awareness, continuity, differentiation and individualization, harmonization of teaching in individuals and groups

Ta'limning interfaol metodi asosiy maqsadi yagona bo'lib, o'quvchilarni mustaqil bilim olishga qiziqtirish, o'z ustida ko'proq ishlash, qo'shimcha adabiyotlarni o'qish, zamon bilan hamnafas ta'lim-tarbiyaga, mustaqil fikr yurita oladigan komil insonni voyaga yetkazishga xizmat qiladi.

Interfaol — "o'zaro harakat qilmoq" yoki kim bilandir suhbat, muloqot tartibida bo'lishni bildiradi.

O'qitish jarayonida interfaol usullarni qo'llash jarayonida o'quvchilarning o'zaro muloqotga kirishishini tashkil etish va boshqarishni taqoza etadi, bunda o'quvchilar hamkorlikda izlanib umumiy, shu bilan bir qatorda har bir o'quvchi uchun ahamiyatga molik bo'lgan muammoni hal etishga kirishib ular o'rtasida bir-birini tushunish, hamkorlikda ishlash va hamjihatlik vujudga keladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning "Innovatsiya, bu-kelajak degani. Biz buyuk kelajagimizni barpo etishni bugundan boshlaydigan bo'lsak, uni aynan innovatsion g'oyalar, innovatsion yondashuv asosida

<https://conferencea.org>

boshlashimiz kerak” — deb aytganlari umumta`lim fani o`qituvchisini ma`lum zaruriy bilimlar bilan qurollangan bo`lishi bilan birga shu bilimlarni o`quvchi ongiga singdirishda yangi texnologiyalar, innovatsiyalar olib kirmog`i lozimligini ta`kidlaydi. Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda o`qituvchi va o`quvchi faoliyatiga yangilik, o`zgarishlar kiritish bo`lib, uni amalga oshirishda asosan interfaol uslublardan foydalaniladi .

Zamonaviy talim oldida turgan eng muhim vazifa oquvchi shaxsining ilm olishga bo`lgan ehtiyojini qondirishga qaratilgan. Biz kimni tarbiyalashimiz kerak?— degan savol zamonaviy pedagogik, didaktik, fanlarni o`qish metodikalarining bosh masalasiga aylandi. Talim tizimi oldiga maqsad qilib yani, komil insonni tarbiyalab voyaga yetkazish qo`yildi. Bu ezgu maqsadni bajarish eski ananaga kirib qolgan ta`lim tarbiyaviy usullar vositasida emas, balki zamonaviy yangi dars hamda usullari vositasida amalga oshirilishi shart.

Zamonaviy darsga qo`yilgan talab asosan jamiyatimizning ehtiyojlaridan kelib chiqadi. Jamiyatning rivoji hayotning barcha jabhalariga shu jumladan talim mazmuniga dars tuzilishiga, qolaversa, insonning kundalik faoliyatiga albatta, o`z tasirini o`tkazishi tabiiydir. O`zbekistondagi pedagog olimlar, ham o`z tadqiqotlari davomida zamonaviy dars muammolariga etiborini qaratib “Zamonaviy dars —eng avvalo, o`quvchi shaxsining talim olish ehtiyojlarini mustaqil tarzda qondirishga o`rgatuvchi usullar majmui” yani interfaol metodlar deb ko`rsatishadi.

Mazkur fikrlar, darsdagi asosiy etiborni o`qituvchi faoliyatidan o`quvchilar faoliyatiga ko`chirish lozimligini ko`rsatib turibdi. O`qituvchi darsda o`zi so`rab o`zi gapirib beruvchi bo`lmasligi kerak, balki o`quvchilarga yangi bilimlarni o`zlashtirishida yaqindan turib turli interfaol metodlarni qo`llab ko`maklashuvi lozim. Zamonaviy darslarning asosiy maqsadi o`quvchilarning mustaqil bilim olish mexanizmiga asoslanganligidadir. Zamonaviy dars deganda, faqat uning nomiga qarab baholash yoki ularni alohida dars tipiga kirish yaramaydi. Bunday darslar mazmunan hamda tuzilishi jihatidan obdon o`rganilib keyinchalik bir ilmiy xulosa yasalishi kerak. Eng asosiysi, bunday darslar o`quvchining ilm olish imkoniyatlarini

<https://conferencea.org>

kengayishiga, ularning mustaqil fikrlashiga, o'z nuqtai nazarini erkin bayon eta olishiga, darslik, qo'shimcha talim vositalaridan mustaqil bilim ola bilishiga, uning bilim va istedodiga qarab faoliyatini obyektiv baholanishiga asoslangan bo'lishi kerak.

Zamonaviy darslarni tashkil etishda yuqorida aytganimizday inovatsiyaning ahamiyati katta. Innovatsiya bu yangilik kiritish ma'nosini anglatadi. Pedagog o'z mahorati, tajribasi va aql-zakovati bilan darsga ijodkorona yondoshib, yangilik olib kirishi lozim. Bu borada darsda interfaol metodlardan foydalanish ko'zlangan natijani beradi. Interfaol metodlar — bu jamoa bo'lib fikrlashdir, ya'ni pedagogik ta'sir etish usullari bo'lib ta'lim mazmunining tarkibiy qismi hisoblanadi. Yangi pedagogik va innovatsion texnologiyalar asosida ta'lim berishning ma'nosi shuki, yangilikka intilgan holda darsni mahorat bilan o'tish qobiliyatidir. Bunda an'anaviy ta'limdan farqli o'laroq, ta'lim oluvchining mustaqil fikr yuritishiga keng imkon beriladi. O'quvchilarning dars jarayoniga, fanlarga bo'lgan qiziqishlarini yanada oshirishda quyidagi texnologiyalardan foydalanish mumkin:

**Hozirgi kunda eng ommaviy interfaol ta'lim metodlari quyidagilar sanaladi:**

1. Interfaol metodlar: “Keys-stadi” (yoki “O'quv keyslari”), “Blist-so'rov”, “Modellashtirish”, “Ijodiy ish”, “Muammoli ta'lim” va b.

2. Interfaol ta'lim strategiyalari. “Aqliy hujum”, “Tarmoqlar”, “3×4”, “**Breynrayting**”, “Bahs-munozara”, “Bumerang”, “Galereya”, “Zig-zag”, “Zinama-zina”, “Muzyorar”, “Rotastiya”, “Yumaloqlangan qor” va k. Interfaol ta'lim metodlari tarkibidan interfaol ta'lim strategiyalarini ajratishda guruh ishini tashkil qilishga yondashuv ma'lum ma'noda strategik yondashuvga qiyoslanishiga asoslaniladi. Aslida bu strategiyalar ham ko'proq jihatdan interfaol ta'lim metodlariga tegishli bo'lib, ularning orasida boshqa farqlar yo'q.

**3. Interfaol grafik organayzerlar:** “Baliq skeleti”, “BBB”, “Konsteptual jadval”, “Venn diagrammasi”, “T-jadval”, “Insert”, “Klaster”, “Nima uchun?”, “Qanday?” va b. Interfaol grafik organayzerlarni ajratishda bunday mashg'ulotlarda

<https://conferencea.org>

asosiy fikrlar turli grafik shakllarda yozma ko'rinishda ifodalanishiga asoslaniladi. Aslida bu grafik organayzerlar bilan ishlash ham ko'proq jihatdan interfaol ta'lim metodlariga tegishli bo'lib, ularning orasida boshqa farqlar yo'q.

**Aqliy hujum— Bevosita jamoa bo'lib «fikrlar hujumi»ni olib borish. Bu uslubdan maqsad-mumkin qadar katta miqdordagi g'oyalarni yig'ish, talaba (yoki o'quvchi)larni ayni bir xil fikrlashdan holi qilish, ijodiy vazifalarni yechish jarayonida dastlab paydo bo'lgan fikrlarni yengishdir.**

“Tarmoqlar” metodi — o'quvchini mantiqiy fikrlash, umumiy fikr doirasini kengaytirish, mustaqil ravishda adabiyotlardan foydalanishni o'rgatishga qaratilgan;

“3×4” metodi — o'quvchilarni erkin fikrlashi, keng doirada turli g'oyalarni bera olishi, ta'lim jarayonida yakka, kichik guruh holda tahlil etib, xulosa chiqara olishi, ta'rif bera olishiga qaratilgan;

**Breynrayting—Ushbu uslubning qo'llanishi breynstorming uslubiga o'xshash bo'lib, faqat unda barcha g'oya, fikrlar yozma bayon etiladi. Bu esa, o'z g'oya va fikrlarini og'zaki bayon etishga uyaladigan yoki qiynaladigan ba'zi tinglovchilar uchun qulaylik yaratadi. Talaba (yoki o'quvchi)lar tomonidan yozilgan fikrlar, g'oyalarning imloviy va uslubiy xatolariga e'tibor qaratilmaydi hamda yozilgan fikrlar oralarida keyinchalik hayolga kelgan fikrlarni yozish uchun bo'sh joylar ham qoldiriladi. Talaba (yoki o'quvchi)lar o'z fikrlarini erkin, tanqid qilmasdan ifoda etishga chaqiriladilar. G'oyalar tahlili keyinroq o'tkaziladi. Bu usuldan foydalanganda, muammoni yechish variantlari imkon qadar ortadi.**

**Bahs-munozara (discussion method) —Usulida guruh a'zolari biror muammoni yechish (yoki bilimlarini oshirish, yoki mavzuni tushunish) maqsadida o'z g'oyalarini og'zaki taklif etadilar. Usuldan samarali foydalanish uchun ishtirokchilar muhokama predmetiga oid yetarli bilim va tajribaga ega bo'lishlari lozim. Bu usul kattalar ta'limida ko'proq samara beradi.**

“Blits-o'yin” metodi — harakatlar ketma-ketligini to'g'ri tashkil etishga, mantiqiy fikrlashga, o'rganayotgan predmeti asosida ko'p, xilma-xil fikrlardan,

<https://conferencea.org>

ma'lumotlardan kerakligini tanlab olishni o'rgatishga qaratilgan.

6x6x6 uslubi—6x6x6 uslubida o'qituvchi guruh 36 ta qatnashchisini qisqa vaqt mobaynida birona masalani muhokama qilishga o'rgatish va ular ko'pchiligining fikrlarini bilib olish imkoniyatiga ega bo'ladi. 6 ta guruh (har birida 6 kishidan) ishtirokchilari o'qituvchi tomonidan o'rtaga tashlangan muammoni 6 daqiqa mobaynida muhokama qiladilar. Shundan keyin o'qituvchi 6 ta yangi guruhni shunday to'zadiki, unda oldingi munozara guruhida qatnashganlardan bironasi albatta bo'ladi. Yangi guruh qatnashchilari o'z guruhlarining ish natijalarini muhokama qiladilar. 6x6x6 - guruhining barcha a'zolarini faollashtiruvchi uslubdir. Qatnashchilardan har biri qisqa vaqt mobaynida ham munozara qatnashchisi, ham so'zlovchisi rovida bo'ladi. Guruhlar bitta muammoni yoki bir muammoning turli jihatlarini muhokama qilishlari mumkin. 6x6x6 uslubi o'qituvchi va guruhlarining faol ishtirokini talab qiladi.

Olmos—Har bir juftlikka 9 ta jumla (hikoya) bo'lgan konvert beriladi va ularni olmos shaklida joylashtirish topshiriladi. Masalan: Eng muhim, ma'noli va qiziqarli jumla olmosning uchiga joylashtiriladi. Keyingi 2 tasi bir xil ikkinchi o'ringa qo'yiladi. O'rtadagi 3 tasi to'rtinchi, keyingi 3 tasi esa, yettinchi daraja hisoblanadi. Olmosning pastiga qo'yilgan jumla, guruh tomonidan eng muhim, ma'noli va qiziqarli bo'lmagan jumla deb hisoblanadi. Juftliklar o'z mashqlarini tamomlaganlaridan so'ng, ular 6 ta bo'lib guruhga bo'linadilar. Guruhdagi har bir juftlik qanday tanlanganligini boshqa ikkita guruhga tushuntirib beradi. Shundan so'ng, umumiy 6 ta talaba (yoki o'quvchi), kelishuv asosida bir fikrga kelishadi. Fikrlarini navbatdagi guruhga aytib, shu tariqa suhbat davom etadi. Mashg'ulot oxirida juftliklar bir-birlariga baho beradilar va o'qituvchi fikrlarni umumlashtiradi. Jummlar o'rniga 9 ta turli rasmlar ishlatilishi mumkin. Bunday holda, mezonlar ham «o'ziga xos», «chiroyli», «kulgili», «ajoyib» yoki «o'zgacha» liklari bilan baholanadi. Joylashtirish piramida shaklida (oltita jumla, rasm va sh.k.) bo'lishi ham mumkin. Talaba (yoki o'quvchi)lar jumla (yoki rasm)larni katta

<https://conferencea.org>

formatli qogozga «Zina» yoki «Narvon» shaklidagi chizma ko`rinishida ham joylashtirishlari mumkin.

Akvarium—o`quv xonasida stullardan iborat ikki doira tashkil etilib, birida stullar tashqariga, ikkinchisida ichkarisiga qarab joylashtiriladi. Talaba (yoki o`quvchi)lar teng ikki guruhta bo`linadilar: biri ichki stullar aylanasi, boshqasi esa, tashqi stullar aylanasi o`tiradilar. Bunda har kim o`z sherigiga qarab o`tiradi. Talaba (yoki o`quvchi)larga muhokama qilish uchun savol beriladi. Yaxshilab o`ylab olganlaridan so`ng talaba (yoki o`quvchi)larga sheriklari bilan savolni muhokama qilish uchun bir yoki ikki daqiqa vaqtda beriladi. Ma`lum signaldan so`ng tashqi aylanadagilar bir o`rin chappa surilishadi va ayni savolni yangi sheriklari bilan muhokama qilishadi. Tashqi aylanadagi talaba (yoki o`quvchi)lar o`zlarining eng birinchi sheriklari surilib kelgunga qadar yoki yetarlicha yangi sheriklari bo`lgungacha faoliyat davom ettiriladi. Shu uslubni tashki doiradagilar tanqidchi sifatida ichki doiradagilar himoyachi sifatida «doiraviy rolli o`yin» shaklidagi mashg`ulotlarda ham qo`llash mumkin.

Kungaboqar—Talaba (yoki o`quvchi)lar 4-5 kishidan iborat guruhlariga bo`linadi. O`qituvchi o`quv predmeti mavzusidan kelib chiqib, o`rtaga bitta muammoni yoki asosiy muammodan kelib chiqib, har bir guruhga bittadan muammo tashlaydi. Har bir guruh kungaboqar yasab, uning markaziga doira joylashtirib, barglar yopishtiradi. Mavzuga qarab, doiraga yoki umumiy bitta muammo yoki har bir guruhning muammolari yozilib doskaga yopishtiriladi (yetarli miqdorda qog`oz barglar oldindan tayyorlab qo`yilishi kerak). Ajratilgan vaqt ichida guruhlar birgalikda fikrlashib, umumiy yoki bir-birlarining muammolari bo`yicha fikr almashmoqchi bo`lsalar, fikrlarini bargga yozib, uni o`sha guruh muammosi yozilgan gulga joylashtirib qo`yadilar va har bir guruhning «muammoli guli» vaqt o`tishi bilan o`sib boraveradi. O`qituvchi barcha guruhlar qatnashchilariga muammoning eng qulay yechish yo`llarini topishga doim yordam berib boradi. Bu uslubdan o`tilgan mavzuni tushuntirish, uni mustahkamlash va takrorlash hamda talaba (yoki o`quvchi)lar egallagan bilimlarni aniqlashda foydalanish mumkin.

<https://conferencea.org>

Uslub, talaba (yoki o`quvchi)larga muammolarni yechish, umumlashtirish, mustaqil fikrlash va fikrlarini erkin bayon qilishga o`rgatadi.

Interfaol usullardan foydalanilgan darslarda bitta o`quvchining ustunlik qilishi, uning o`z fikrini o`tkazishiga yo`l qo`yilmaydi. Interfaol usullar qo`llanilganida o`quvchilar tanqidiy fikr yuritish, axborot manbalari va vaziyatni tahlil qilish, murakkab muammoli vaziyatlarni hal etish, o`rtoqlarining fikrini tahlil qilib, asoslangan xulosalar chiqarish, munozarada ishtirok etish, boshqa shaxslar bilan muloqotga kirishish ko`nikmalarini egallaydi.

Фойдаланилган адабиётлар.

1. Ахмедова Ю.Қ., Холиқова М.О., Олий таълим муассасаларида география фани ўқитишнинг назарий асослари // Тошкент Давлат Педагогика Университети Илмий ахборотлари илмий-назарий журнал ISSN 2181-9580, 2022й, 1-сон. 18-23 б (13.00.00;№5)
2. Ahmedova Yu.K., History of Ancient of Ancientand Medieval stage development of general earthquake // Academicia: an International Multidisciplinary Research Journal ISSN:2249-7137 vol.12, 05. May 2022 SJIF 2022-8.252 509-512
3. Ahmedova Yu.Q., Xoliqova M, Shirinova M, Rahmonova S // Theoretical Fundamentals of Improving the professional Competence of Geography Teachers in Educational Institutions// International Journal of Early Childhood Special Education (INT-JECS) ISSN:1308-5581vol 14, 03.2022 2022. 10015-10017.
4. Ахмедова Ю.Қ. “География фани дарсларида ахборот технологияларидан фойдаланишнинг ўзига хос хусусиятлари” International Congress on Multidisciplinary Studies in Education and Applied Sciences Berlin, Germany June 3rd 2022 conferencezone.org.,